Sigaretning quyuq tutuni. Tutun xuddi dengizga oʻxshaydi, bu dengizda odamlar u tomondan bu tomonga chayqaladi. Tepada katta, chang bosgan chiroq. Devorlarda toshbosma rasmlar: Arablarning intiqomi, Dumlupinar, Inoʻnudagi zafarlarimizning qalpoqli qoʻmondonlari, zambaraklar, asir olingan yunon askarlari... (Kemal, 1974, s. 212)

Yozuvchi “Söğüt Yaprığı” (“Tol bargi”) nomli hikoyasida Usmoniylar davlatining 34-sultoni Abdulhamid II davri va undan keyingi davr voqealarini asar qahramonlarining tilidan shunday ifoda etadiki, tarixiy reallik aniq tasvirlanadi:

Sulton Hamid davrini qoʻmsagan qariyalar “Qanday kunlarni boshimizdan kechirmadik, qiyomat alomatlari edi-ya...” deyishardi yon-atrofdagi qimmatçilik haqida gapirishar ekan. Egri-bugri koʻchalar, bir-birining ustiga qurilgan uylarda yashagan va notanish kimsalarga olaboʻjidek qaragan eski istanbulliklar qadim zamonlardagi akulalarni esga soladigan devdek uskunalarini hali koʻrmagan edilar. Katta hovuzli Boyazit, oʻsha eski Boyazit edi. Sargʻish, mungli yorugʻlik taratayotgan derazalaridan yomgʻir tomchilari quyib oqayotgan Baliq bozori, oʻsha eski Baliq bozori edi (Kemal, 2010, s. 254).

Yozuvchi yuqoridagi parchada qahramon xotirasidagi eski tarixiy voqealarni keltirish bilan asar mazmunini boyitadi va tarixiy rivoyatlarga xos unsurlarni singdiradi. Zero,

Tarixiy rivoyatlarning aksariyat qismi turli davrlardagi tarixiy asarlar sahifalaridan keng oʻrin olgan boʻlsa, bir qismi, asosan, xalq rivoyatlari nisbatan keyinroq davrlarda yaratilgan va ogʻizdan-ogʻizga oʻtib, xalq orasida keng tarqalgandir. Bu rivoyatlarda tarixiy hujjat emas, orzu, maqsad va uning qanoti boʻlmish mubolagʻali tasvir yetakchilik qiladi (Jumanazorov, 1991, b. 230).

Xalq ogʻzaki ijodining keng tarqalgan janrlaridan ertak motivlari ham badiiy adabiyotda yozuvchilar tomonidan keng qoʻllanilgan. Ijodi tahlil qilinarotgan Abdulla Qahhor va Oʻrxon Kamol hikoyalarda ham ertak motivlarini koʻplab uchratish mumkin. Bu motivlar ikki yozuvchi hikoyalari syujeti va voqealarning izchil rivojiga katta xizmat qilgan. Xususan, Abdulla Qahhor “Bashorat” hikoyasini ertak stilizatsiyasi asosida yozadi, asar sehrli ertaklardagi syujet va qahramonlarni esga soladi. Hikoya avvalidagi voqea, yaʼni qahramonning pashshalar shohini tutib olishi, uning joni evaziga koʻrinmas qiyofaga kirishi, hatto xon darajasiga koʻtarilishi “Oltin baliq” ertagining syujetini eslatadi. Asarda yarim odam, yarim maymun qiyofasidagi “Qirarman” va “Yigʻarman” nomli ikkita maxluqning gʻordan chiqib kelishi, ularning butun

qishloq ahlini qirib yuborishga jalb etilishi esa ertaklardagi dev va ajdarholarni ko'z o'ngimizda gavdalantiradi. Asar yakunida qahramonning "bu bir bashorat" deyishi, bashorat tushlarga urg'u berilganidan dalolat beradi. Ko'rinadiki, asarda og'zaki ijod namunalaridagi tush motivi ham qahramon ruhiyatini aks ettirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Hikoya faqatgina ertak janriga xos xususiyatlar bilan cheklanmaydi, balki Qahhor, G'. Mo'minov ta'kidlaganidek,

O'zining 30-yillarda yaratgan "Bashorat" hikoyasida folklordan foydalanishning yorqin namunasini ko'rsatgan edi. Bunda u xalq ertaklari va rivoyatlaridagi shartli-majoziy tasvir priyomidan, fantastik tasvir usulidan foydalangan holda o'z badiiy fantaziyasi yordamida kuchli hajviy situatsiya yaratadi va jamiyatda hech qanday foydali ish bilan shug'ullanmaydigan Said Jalolxon tipidagi o'tmishning chirkin hayotini qo'msovchi, yashashning mohiyatini faqat ko'knori kayfida deb bilgan, hayotda o'z o'rnini topolmagan kishilarning hajviy holatini o'tkir xalq yumori, latifa va afsonaviy situatsiyalar vositasida favqulodda jonli va ta'sirli qilib tasvirlashga erishadi (Mo'minov, 1994, b. 83).

Bilamizki, jallod obrazi xalq ertaklarida xon saroyida o'limga mahkum odamlarning boshini tanasidan judo qilgan kishilar bo'lgan. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak,

Jallod – xonliklar davrida o'lim jazosiga hukm qilinganlarning boshini oluvchi, o'lim jazosi haqidagi hukmni ijro etuvchi odam va ana shunday kasbga berilgan nomga nisbatan qo'llanilgan. Bunday kasb egalari xalq tasavvurida hissiz, o'ysiz, idroksiz, qo'rs va berahm shaxs sifatida gavdalangan. (Kencayeva, 2019, s. 206).

Qahhorning "Ko'r ko'zning ochilishi" hikoyasida esa ham saroy xizmatchisi bo'lgan, ham ertaklarda uchraydigan jallod obrazi bor. Hikoyada jallodning qiyofasi shunday tasvirlanadi:

Shunday qilib Ahmad polvon so'yiladigan bo'ldi. Pakana, g'unda, vujudi ajaldan darak berib turgan jallod kelib uning yelkasidan qattiq tortganda, bu uch kunlik azob ichida holdan toygan Ahmad polvon, oyoqlari chalishib, chalqancha yiqildi: uch kundan beri hatto hojat uchun ham yechilmagan qo'llari ostida qoldi. Polvon o'rnidan turganidan keyin qo'lini qimirlatib ko'rib, sinmagan yoki lat yemaganiga sevindi, ammo shu onning o'zida jallodning oyog'i ostiga boshini qo'yib tomog'ini pichoqning damiga rostlab berish uchun ikkinchi qadamni bosishga majbur edi (Qahhor, 1967, b. 71).

Yuqoridagi parchasi keltirilgan "Ko'r ko'zning ochilishi" hikoyasi, Qo'shjonovning ta'biri bilan aytganda, o'zbek hikoyachiligida "folklor motivlaridan foydalanilgan holda yaratilgan ijobiy qahramon yo'lidagi birinchi urinishlardan edi." (Qo'shjonov, 1982, b. 119)

O'rxon Kamol hikoyalari tahlil qilinar ekan, ularda ham ertak, afsona va doston singari xalq adabiyoti janrlarda uchraydigan ayrim obrazlarni uchratish mumkin. Ana shunday obrazlardan biri bu devdir. Yozuvchi bu obrazni mubolag'a sifatida qo'llaydi. Kamol "Dev" nomli hikoyasida qahramonni boshqalardan ajratib ko'rsatish uchun dev tasviridan foydalanadi:

Mayxonaga dev haybati bilan kirdi. Ustma-ust qo'yilgan katta may bochkalaridan birining oldidagi kichik kursiga o'tirdi. Bu o'tirish granitdan yo'nilgan muhtasham Muso haykalini esga solardi. Oppoq soqoli ko'ksiga qadar tushgan bu odam tevarak-atrofga razm soldi... (Kemal, 1974, s. 306).

Uning "Minnacik Dev" ("Mitti dev") hikoyasida ham dev obrazining aynan mubolag'a sifatida qo'llanilgan:

Romanlar yozib devlar bilan jang qilishni istayman! - der edi. Munaqqidlar haqli edi. Dunyo miqiyosidagi yozuvchilar turganda mitti mahalliyilar bilan vaqtini yo'qotmasligi kerak. Ha, romanlar yozib xorijda nom qozonaman va dunyoga tanilgan sanoqli devlar bilan jang qilib ularni ham yengaman! Kim bor? Balzakmi? Dostoyevskiyimi? Tolstoyimi? Men yangi bir turk Balzaki bo'laman!... (Kemal, 1974, s. 198).

Bizga ma'lumki, dev obrazi xalq og'zaki ijodining deyarli barcha janrlarida uchraydigan mifik qahramon bo'lib, u ba'zan yovuzlik, ba'zan ezgulik timsoli sifatida aks ettiriladi. Yuqoridagi parchada dev obrazi dunyoga dong'i ketgan yirik yozuvchilarning qiyofasini ifodalashga xizmat qilgan. Asardagi dev tasviri qahramonning qaddi-qomatini emas, aksincha uning ulkan iste'dod sohibi ekanligini anglatadi.

Abdulla Qahhorning "Maston" hikoyasida esa ertak qahramonlaridan alvasti obrazini ko'rish mumkin. Yozuvchi bu obrazni qahramon nutqi orqali shunday tasvirlaydi:

– Otam o'lmaganda men bu alvastiga bir kun ham xotin bo'lmas edim. Otam o'ldi – darmonim quridi. (...) ... Bu alvastidan chiqsam ko'chada qolar edim... (Qahhor, 1967, b. 87).

Alvasti timsoli ham turkiy xalqlar mifologiyasida turli qiyofaga kiruvchi afsonaviy maxluq hisoblanadi. Shunga ko'ra, u ham devlar singari g'orlar, o'rmon va tog'u-biyobonlarni kezib yuruvchi jinlar toifasiga kirgan. Zamonaviy adabiyotda ba'zan bu obrazning ko'chma ma'noda ishlatilishi ham kuzatiladi, yuqoridagi parchada yozuvchi qahramonning nihoyatda ko'rimsiz va badbashara inson ekanligini ta'kidlash maqsadida shu timsoldan unumli foydalanadi. Ikki yozuvchining hikoyalarida xalq og'zaki ijodiga xos motivlardan ko'proq mubolag'a

sifatida qo'llash va bu orqali obrazlarning yoki voqealarning bo'rttirib ko'rsatish, hikoya voqealarining ta'sir kuchini oshirishga erishgan. Bundan tashqari, O'rxon Kamol hikoyalarida og'zaki ijoddagi doimiy sifatlashlar ham ko'zga tashlanadi. Uning "Vilispit" hikoyasida velosipedning "jonsiz ot", "g'ildirak" kabi sifatlashlari kuzatiladi. Bu yerda sifatlash predmetni yorqin ifodalash uchungina xizmat qilib qolmay, yozuvchining ularga bo'lgan munosabatini ifodalashda ham zarur vosita hisoblanadi:

Qadimdan velosipedga "velasapet" yoki "velsapet" deyishganini eshitganmisan? Bizning Adanada "jonsiz ot" ham deyishardi, to'g'ridan-to'g'ri "g'ildirak" ham (Kemal, 1974, s. 212).

Yozuvchi bu hikoyada bolalar folkloriga xos unsurlarga murojaat qiladi. Jonsiz ot bolalarning sevimli ulovi bo'lsa, g'ildirak ham o'yin turlaridan biri hisoblanadi. Bolalar folkloriga xos bu o'yin turlari barcha turkiy xalqlarning og'zaki ijod namunalarida bevosita kuzatiladi. O'zbek folklorida tol yoki tut novdasidan yasalgan jonsiz ot o'yini bolalar orasida "ot-otakam" deb yuritiladi. Bundan ko'rinadiki, asarda qahramonning yoshligini eslab, bolalar o'yinlarini tilga olishi folklorizmga xos xususiyatlarni namoyon etadi.

Qahhor ham hikoyalarida badiiy tasvir vositalaridan juda ko'p va mahorat bilan foydalanadi. U "Dahshat" hikoyasida shamolni "goh och bo'riday uvillar, goh o'lim changaliga tushgan mushukday pixillar, vag'illar" deb tasvirlaydi. Bu tasvirda shamolni bo'ri va mushukka o'xshatadi va asardagi voqea rivojining muhim qismi sifatida ko'radi.

Har bir yozuvchi so'zlarni o'z ma'nosida ishlatish bilan birga, biror hodisa mohiyatini teran ochish, uning xususiyatlarini bo'rttirib tasvirlash uchun mustaqil so'zning shu hodisa xususiyatlari bilan bog'liq turli ma'no tovlanishlaridan foydalanadi. Lekin yozuvchi qo'llayotgan so'zlarning ko'p ma'noliligi ma'lum manbadan olingan matnda aniqlanadi. Abdulla Qahhor va O'rxon Kamol hikoyalarida qo'llanilgan so'zlar ham ko'p ma'noliligi bilan ajralib turadi. Shu ma'noda har ikki yozuvchi hikoyalarida mazmunni aniq yetkazib berishda va janrning ixchamligini ta'minlashda xalq maqollari va matallariga ko'p murojaat qiladi. Bu esa asar tilining xalqchilligini va ommabopligini ta'minlashga olib kelgan. Xalq maqollarida xalqning donishmandligi ixcham shaklda va teran mazmunda beriladi. Xalq maqollari axloqiy-ma'rifiy qiymatga ega bo'lib, ularda fikr obrazli va aniq ifodalanadi, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, insonlarning turmush hodisalariga munosabati, dunyoqarashi, mehnat faoliyati va estetik didi, ruhiy holatlari o'z ifodasini topadi.

O'rxon Kamolning hikoyalaridagi qahramonlar nutqida shunday xalq maqollari, matal va iboralarini ko'plab uchraydi:

"Şeytana bile pabucunu ters giydirir" – shaytonga ham dars beradi; "ağzımdan baklayı tam çıkaracaktım" – gapning indallosini endi aytmoqchi edim; "binmeyeceği katıra yem takmaz o be" – taka bo'lsin, sut bersin; "yiğit lakabıyla anılır aslanım" – yigit kishi laqabi bilan esga olinadi, yigitcha ("Ish").

"Yaşayan görür" – boshga tushganni ko'z ko'rar ("O'zgargan dunyo").

"Kırkıdan sonra azanı teneşir paklar" – bukrini go'r to'g'rilaydi ("Qari Mushuk").

"Dağ dağ üstünde olur, ev ev üstünde olmaz" – bir qozonda ikki qo'chqorning boshi qaynamas; "hesabı gör, öyle git" – suv ko'rmay etik yechma ("O'n besh tiyin").

"Sakallıya selam yok" – gadoga salom berma, dinor ber; "eski dost düşman olmaz" – eski do'stdan dushman bo'lmas ("Laganbardor").

"Mum alsın da derdine yansın o" – oldin o'zingga boq, keyin nog'ora qoq ("Bo'yalgan dudoq" hikoyasidan).

Abdulla Qahhor asarlarida ham, Kamol hikoyalaridagi kabi, ko'plab xalq maqol, matallari va frazemalarni ko'rish mumkin:

"Asal otliqqa yo'q, hali biz piyoda-ku!" ("Anor").

"Osmon yiroq, yer qattiq; bunday paytlarda yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi" ("Bemor").

"Otning o'limi itning bayrami; quruq qoshiq og'iz yirtadi"; "berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz; uni begim deguncha kishining beli sinar ekan"; "o'ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan" ("O'g'ri").

"Zo'ri behuda miyon meshikanad" ("To'yda aza").

"Ola qarg'a qag' etadi, o'z vaqtini chog' etadi" ("Bashorat").

"Yer tepganni, el tepadi" ("So'ngan vulqon").

"Ikki yorti – bir butun" ("Ikki yorti – bir butun").

"Suv ketar tosh qolar, o'sma ketar qosh qolar; ishi yo'q it sug'oradi" ("Xotinlar")

Hikoyalardan keltirilgan misollardan badiiy asar qahramonlarining nutqida xalq tili boyligiga xos xususiyatlar bilan birga, yozuvchining unga bo'lgan munosabati, qahramonlar nutqidagi muhim asosiy xususiyatlar ham yaqqol ko'rinadi.

Ikki yozuvchi uslubidagi o'xshash jihatlardan yana biri, qahramonlar nutqida aks etgan olqish va qarg'ishlardir. Og'zaki ijodning kichik namunalari hisoblangan olqish va qarg'ishlar hikoyalarning tabiiyligini ta'minlagan, qolaversa qahramonlar xarakteri, ichki qiyofasini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etgan. A.Keskin ta'kidlaganidek:

Mifologiya, avvalo, “tafakkur” va “e’tiqod” tarixidir. Olqish va qarg’ishlar ham bu e’tiqod va tafakkur zanjiriga bog’liq holda shakllangan, hayotga tadbiiq etilgan va an’anaga aylangan folklor mahsuli hisoblanadi. Xuddi-ki, sehr duolari, tabu va chekinishlar, turli diniy marosimlar va ularning madaniy hayotdagi barcha sohalariga tadbiiq qilinganining aksi kuzatilganidek, olqish va qarg’ishlar ham mifik tushunchalarning shaxs va jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etgan qadimgi davrlarida shakllangan madaniy merosdir. Olqish va qarg’ishlar shaxs va jamiyat hayotidagi turli vazifalarni bajargani ve ilohiy olam bilan aloqa vositasi deb qaralgani uchun ham hozirgacha yetib kelgan (Keskin, 2018).

Darhaqiqat, olqish va qarg’ishlar hozirgacha yetib kelgan, bunda yozma adabiyotning o’rni nihoyatda beqiyos. Aksariyat yozuvchilar qahramon qiyofasini, uning milliy o’zligini aks ettirishda olqish va qarg’ishlardan samarali foydalanadilar. Bu esa qahramonlarning bir-biriga munosabatida, nutqida yaqqol aks etadi. Shu orqali yozuvchilar xalq dili va tilidagi olqish, tilak, duo va qarg’ishlarni kelajak avlodga yetkazish barobarida, asarning milliyligini va xalqchilligini oshirishga intiladilar. Abdulla Qahhor aksariyat hikoyalarida qahramonlar dialoglarida olqish va qarg’ishlardan samarali foydalangan:

“Ha, ishqilib, ikkovining ham boshi omon bo’lsin” (“Boshsiz odam”).

“Oh-oh-oh! Otangizga rahmat! Kamol toping, do’stim!” (“O’jar”).

“Barakallo, o’g’lim, barakallo, - dedi Hoji kursiga ehtiyot bilan o’tirayotib. – Umringiz uzoq bo’lsin” (“Yillar”).

“Ammo lekin, Asrorqul, baraka top!” (“Asror bobo”).

“Umring uzoq bo’lsin, qizim!” (“Xotinlar”).

“Yashasin havaskor kampirlarimiz!” (“Kampirlar sim qoqdi”).

“E, salomat bo’ling!” (“Karavot”).

“Xudo xayr bersin...” (“O’g’ri”).

“Qurib ketsin! – dedi u yig’lamsirab. – O’qishing boshingdan ordona qolsin, Maston!..” (“Maston”).

“Ha, o’la qolsin, hoji odam emasmi!, Hu o’l, turqing qursin!” (“Mayiz yemagan xotin”).

“Qurib ketgur shu o’tinning tutuni biram achchiq ekanki!” (“Asror bobo”).

“Bahri! Hu, afting qursin!” (“Xotinlar”).

“Voy, o’lsin?” (“Karavot”).

“Xudoyo Gitler o’lsin, senday yigitlarni uy-joy qilib, orzu-havas ko’rgani qo’ymasa!” (“Ko’k konvert”).

O’rxon Kamol ham hikoyalarida qahramonning ichki kechinmalari, o’y-xayollarini yorqin aks ettirishda olqish va qarg’ishlaridan unumli foydalanadi. Natijada asar tilining xalqona, sodda va tushunarli bo’lishiga erishadi:

“Allahim guzel Allahim... Sen yuzume bak!” (Xudoyim, o’zingdan o’rgilay Xudoyim) (“Qabih”).

“Aklınla çok yaşa” (Aqlingga ballı) (“Qotil”).

“Allah utandırmasin...” (Yuzing yorug’ bo’lsin) (“Bo’yoqchi”).

“E vallahı aşkolsun babanın zevkine!” (Otangizning ta’biga qoyilman, juda zo’r) (“Huzun”).

“Sağlığınıza duacıyım beyfendi!” (Omon bo’ling janob!) (“Behiye”).

“Allah encamımızı hayırlara tedbil eylesin!” (Nima niyat qilgan bo’lsangiz Alloh nasib qilsin!) (“Eski plastinka”).

“Yerin dibine gir, boynun kopsun!” (Yer yutgur, bo’yning uzulsin!); “Geber, alçak! (O’lib ketmaysanmi, pastkash!); “Toka hani kör olasıca?” (To’g’nog’ich qani, yer yutgur?) (“Yomg’irli bulutlar”).

“Ah bu rekabet ah gözü çıksın!” (Voy, bu raqobat deganlariga ming la’nat!); “Gözü çıksın...” (Ko’zi teshilgur...) (“Qotil”).

“Allah belalarını versin topunun da” (Alloh butun urug’-aymog’ini baloga duchor qilsin) (“Kim-kimga”).

O’zbek yozuvchisi Oybekning so’zlari bilan aytadigan bo’lsak:

Yozuvchi xalq tilining boy xazinasidan istaganicha material oladi. Asarning badiiy to’qimasida yuzlarcha maqollar, maxsus ifodalar, turli gaplar, qochirmalar, so’z o’yinlari yarqiraydi. Mana bular tilni qonli, jonli, obrazli bir til qiladi (Oybek, 1975, b. 275).

Oybekning ta’rifiga tayanadigan bo’lsak, yuqorida keltirilgan maqollar, maxsus ifodalar, olqish va qarg’ish kabi og’zaki ijod namunalari hamda yozuvchilar tarafidan mohirona qo’llanilgan so’z o’yinlari Abdulla Qahhor va O’rxon Kamol hikoyalarining tilini qonli, jonli va obrazli tilga aylantira olgan.

Bundan tashqari, Qahhor va Kamol hikoyalarida xalq og’zaki ijodining yana bir turi hisoblangan qo’shiqlar va turkulardan namunalarni ham ko’plab uchratish mumkin. O’zbek xalq qo’shiqlari odatda, yigit va qiz orasidagi aytilishuv shaklidagilari bayramlarda, boshqalari esa turli xil marosimlarda kuylansa, turkularning asosiy mavzusi atrof-muhit, tabiat, mavsum-marosim yoki biror voqea ta’sirida paydo bo’lgan

tuyg'ularning ifodasi bo'lgani sababli sevgi-muhabbat, tabiat, go'zallik, sog'inch, qayg'u, hasrat, g'urbat, ayriliq, o'lim singari turli mavzularni qamrab oladi.

Qahhor va Kamol hikoyalarida keltirilgan xalq qo'shiq va turkularining asosiy mazmuni asar qahramonlarining bir-biriga bo'lgan munosabatlarini yorqinroq ochib berishga xizmat qilgan. Masalan, Qahhorning hikoyalaridagi keltirilgan xalq qo'shiqlari ko'proq ichki tuyg'ularni ochib berishi bilan ahamiyatlidir:

"Mulla Umar sizmisiz?

To'ng'iz o'qi yermisiz?" ("Ko'r ko'zning ochilishi").

"O'tdi umrim voh darig'..." ("Yillar").

"Toychalar kishnashadi ot bo'ldim deb,

Kelinlar yig'lashadi yot bo'ldim deb" ("Qizlar").

"Hoy-hoy, mening yorimsan,

Tanimdagi jonimsan,

Qorong'u kechalarda

Yondirgan chirog'imsan..." ("Karavot").

O'rxon Kamol hikoyalaridagi turkular esa ko'proq asar qahramonlarining bir-biriga sog'inchi, ayriliqdagi izzirobi yoki sevgilisining ta'rifini yanada chuqurroq ko'rsatib berish uchun foydalanilgan:

"Evvel yârin sevgilisi ben idim.

Şimdi uzaklarda kalan ben oldum."

("Avval yorning sevgani men edim.

Endi uzoqlarga ko'z tikkani men bo'ldim") ("Nag'malar").

"Cigaramın dumanı

yoktur yârin imanı"

("Sigaretamning tutuni,

Yorning yo'qdir iymoni")

"Yâr, imansız yâr,

Kırmızı küpeli, mavi mantolu

Lâpa lâpâ karların altında

Çevik adımlarıyla koşup gelen yâr."

(Yor, vijdonsiz yor,

Qizil zirak va ko'k paltoda

Laylak qorning ostida chopqillab kelgan yor)

"Kanarya gibiyim, gidiyorum!"

(Kanareyka kabiman, ketyapman!)

"Süzül güzel süzül de gel

Deli gönlüm hep seni ister.

(Suzil go'zal suzulib kel

Telba ko'nglim faqat seni der) ("Nag'malar").

Sonra da ünlü türküyü tutturdu:

"Amman booyacı, boyacııııı.

Fırçana vurulayım booooyacııııı...

Kadifene kesileyim booooooyacııııı..."

(Hoy bo'yoqchi, ey bo'yoqchiiii.

Cho'tkangdan o'rgilay bo'yoqchiiii...

Baxmalingdan aylanay bo'yoqchiiii...) ("Bo'yoqchi").

Q'shiq va turkularning ma'nolaridan har ikki yozuvchining hikoyalardagi qahramonlarning hissiyotlari, o'sha davrga xos bo'lgan an'analar, urf-odatlar o'z ifodasini topganligini ko'rish mumkin.

Xulosa

Inson dunyoga kelar ekan, xalq ijodi durdonalari ta'sirida ulg'ayadi, ular vositasida tarbiyalanadi. Abdulla Qahhor va O'rxon Kamol ham bolalikdan ana shunday folklor namunalari ta'sirida voyaga yetishgan, o'z xalqining urf-odatlarini, an'analari va qadriyatlarini vositasida kamol topishgan. Shu bois ham ularning har bir hikoyasida xalq tomonidan yaratilgan, bizga ham yod bo'lib ketgan og'zaki asarlardan katta-kichik parchalar ko'zga tashlanadi. Bolaligidan ertak eshitib ulg'aygan yozuvchilarning ayrim hikoyalari xuddi ertaklar olamidagi qahramonlarni, voqea-hodisalar va manzaralarni eslatadi. Bu haqida yuqoridagi tahlillarda misollar bilan isbotlashga harakat qildik. Ayniqsa, xalq maqollari, matal va iboralari, olqish va qarg'ishlar aksariyat hikoyalar matnida ko'zga tashlanadi, bu odatda, qahramonlar nutqida, o'y-fikrlarida namoyon bo'ladi. Yozuvchilar ijodida kuzatilgan bunday tajribalar ularning xayolot olamida uyg'ongan fikr va his-tuyg'ularini ifodalash barobarida asar voqealarining tasviridagi ta'sir kuchini oshirishga xizmat qilgan.

Shuningdek, yozuvchilar asrlar davomida saqlanib, avloddan-avlodga yetib kelayotgan og'zaki ijod namunalarini zamonaviy hikoyalar mazmuniga sintezlash vositasida keyingi avlodga yetib borishi uchun katta hissa qo'shdilar. Hikoya qahramonlarining ruhiy holatini ifodalashda folklorizmlardan unumli foydalandilar. Bu esa Abdulla Qahhor va Orxon Kamol ijodini birlashtirib turuvchi asosiy xususiyatlardan biri hisoblanadi. Ikkala yozuvchi ham oddiy va murakkab folklorizmning deyarli barcha ko'rinishlaridan samarali foydalangani hikoyalar mazmun-mohiyatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ularning ijodi keyingi avlod nasrnavislari uchun ham muhim manba sifatida ta'sir ko'rsatgan va ilhom manbai bo'lgan.

Ko'rinadiki, ikkala yozuvchining hikoyalari xalq og'zaki ijodi namunalariga nihoyatda boy. Hikoyalarda turk va o'zbek xalqining hayoti, turmush tarzi, falsafiy dunyosi, urf-odat va an'analari xalqona uslubda tasvirlanadi. Bu esa yozuvchilarning xalq hayotiga dildan yaqin bo'lgani va uning orzu-istaklari bilan yashaganligidan dalolat beradi.

Hakem Değerlendirmesi: Dış bağımsız.

Yazar Katkıları: [Veli Savaş Yelok (VSY), Paşacan Kencayeva (PK)]: Fikir-VSY; Tasarım-VSY; Denetleme-PK; Kaynaklar-VSY; Veri Toplanması ve/veya İşlemesi-VSY; Analiz ve/veya Yorum-VSY-PK; Literatür Taraması-VSY; Yazıyı Yazan-VSY-PK; Eleştirel İnceleme-PK

Çıkar Çatışması: Yazarlar, çıkar çatışması olmadığını beyan etmiştir.

Finansal Destek: Yazarlar, bu çalışma için finansal destek almadığını beyan etmiştir.

Peer-review: Externally peer-reviewed.

Author Contributions: : [Veli Savaş Yelok (VSY), Paşacan Kencayeva (PK)]: Concept- VSY; Design-VSY; Supervision-PK; Resources-VSY; Data Collection and/or Processing-VSY; Analysis and/or Interpretation-VSY-PK; Literature Search-VSY; Writing Manuscript-VSY-PK; Critical Review-PK

Conflict of Interest: The authors have no conflicts of interest to declare.

Financial Disclosure: The authors declared that this study has received no financial support.

Adabiyotlar/Kaynaklar/References

- Alptekin, A. B. (1982). Elif ile Yaralı Mahmut hikâyesi. *Türk Folkloru Araştırmaları*, (27), 179-205.
- Alptekin, A. B. (1993). Dede Korkut hikâyeleri ile halk hikâyelerinin münasebetleri. *Türk Kültürü Araştırmaları*, (29), 22-33.
- Alptekin, A. B. (1997). *Halk hikâyelerinin motif yapısı*. Akçağ Yayınları.
- Aslan, E. (1990). Halk hikâyelerini inceleme yöntemleri: Yaralı Mahmut hikâyesi üzerinde bir inceleme. Dicle Üniversitesi.
- Aslan, E. (2001). Halk hikâyelerinde kahramanların kıyafet değiştirme motifi ve arabizengi tipi. *Türkbilgi*, (2), 1-10.
- Bayaz, H. (1981). *Köroğlu: Antep rivayeti*. Karaca.
- Duymaz, A. (2001). *Kerem ile Aslı hikâyesi üzerinde mukayeseli bir araştırma*. Kültür Bakanlığı.
- Ekici, M. (1995). *Dede Korkut tesiri ile teşekkül eden halk hikâyeleri*. Atatürk Kültür Merkezi.
- Elçin, Ş. (1981). *Halk edebiyatına giriş*. Kültür Bakanlığı.
- Elçin, Ş. (1988). *Halk edebiyatı araştırmaları*. Kültür ve Turizm Bakanlığı.
- Filizok, R. (1991). Ziya Gökalp'ın eserlerinde halk edebiyatı tesiri üzerine bir araştırma. Kültür Bakanlığı.
- Güney, E. C. (1971). *Folklor ve halk edebiyatı*. Millî Eğitim Basımevi.
- Jumanazorov, U. (1991). O'zbek fol'klori va tarixiy voqelik. Fan Nashriyoti. (In Uzbek)
- Kaya, D. (1993). *Mahmut ile Nigâr hikâyesi üzerine karşılaştırmalı bir araştırma*. Kültür Bakanlığı.
- Kemal, O. (1974). *Kırmızı küpeler*. Bilgi Yayınevi.
- Kemal, O. (2010). *Yağmur yüklü bulutlar / Dünyada harp vardı* (6. baskı). Everest Yayınları.
- Kemal, O. (2012). *Ekmek kavgası* (18. baskı). Everest Yayınları.

- Kencayeva, P. (2019). Hurşit Dostmuhammet ve Ferit Edgü'nün hikâyelerinde müşterek karakterler dünyası. *Anadolu Kültürel Araştırmalar Dergisi*, (2), 205-214.
- Keskin, A. (2018). Türk kültüründe alkışlar (dualar / iyi dilekler) ve kargışlar (beddualar / kötü dilekler): Metin ve bağlam merkezli bir inceleme (Tez No 502931).[Doktora Tezi, Ege Üniversitesi]. YÖK Ulusal Tez Merkezi.
- Köprülü, M. F. (1930). *XVII. asır saz şairlerinden Kayıkçı Kul Mustafa ve Genç Osman hikâyesi*. İstanbul Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü.
- Köprülü, M. F. (1966). *Edebiyat araştırmaları*. Türk Tarih Kurumu.
- Köse, N. (1997). *Türk halk hikâyelerinde gurbet*. Millî Folklor Yayınları.
- Mo'minov, G'. (1994). Hozirgi o'zbek adabiyotida fol'klorizm [Chop etilmagan doktorantura dissertatsiyasi]. Toshkent Davlat Universiteti. (In Uzbek)
- Oybek. (1975). Mukammal asarlar to'plami (Tom 9). Fan Nashriyoti. (In Uzbek)
- Püsküllüoğlu, A. (1982). *Türk halk öyküleri*. Türk Dil Kurumu Yayınları.
- Qahhor, A. (1967). Asarlar (Tom 1). G'afur G'ulom Nashriyoti. (In Uzbek)
- Qahhor, A. (1971). Asarlar (Tom 6). G'afur G'ulom Nashriyoti. (In Uzbek)
- Qo'shjonov, M. (1982). Saylanma (Tom 1). G'afur G'ulom Nashriyoti. (In Uzbek)
- Sarimsoqov, B. (1980). Folklorizmlar tipologiyasiga doir. *O'zbek Tili va Adabiyati*, (4), 39-42. (In Uzbek)
- Sav, E. (1974). *Halk hikâyeleri*. Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları.